

TAYANCH HARAKATI A'ZOLARI FALAJLANGAN BOLALAR TA'LIM-TARBIYASIDA NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISH YO'LLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti,
 Maxsus pedagogika kafedrası
 assistent-o'qituvchisi V.T.Axmedova,
 (PhD), dotsent M.Jo'raxo'jayev,
 assistent-o'qituvchi U.mirzayeva,
 stajor-o'qituvchi S.Mamatisayeva,
 stajor-o'qituvchi M.Qodirova.
 ORCID ID 009-003-6218-0270*

Annotatsiya

Ushbu maqolada tayanch-harakat a'zolari falajlangan (tserbral falaj) bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Nutqiy rivojlanishdagi muammolarni bartaraf etishda kompleks yondashuv – logopedik, defektologik, psixonevrologik va pedagogik ishlanmalar birgalikda olib borilishi ta'kidlangan. Muallif tomonidan nutqni rivojlantirishga qaratilgan bosqichma-bosqich mashg'ulotlar tizimi, o'yin va mashqlarning amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, lug'at boyligini kengaytirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalar keltirilib, bolalarning faoliyatini o'yin orqali faollashtirish, sensor-tasavvur ko'nikmalarini shakllantirish muhim ekani asoslangan. Maqola maxsus ta'limga sohasidagi mutaxassislar va amaliyotchi logopedlar uchun foydali metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Serbral falaj, nutq kamchiligi, logopediya, maxsus pedagogika, korreksion mashg'ulotlar, lug'at boyligi, sensor rivojlanish, defektologiya, didaktik o'yinlar.

Аннотация

В данной статье освещены пути устранения речевых нарушений у детей с нарушением опорно-двигательного аппарата (детский церебральный паралич). Подчёркивается, что устранение проблем речевого развития требует комплексного подхода, включающего логопедические, дефектологические, психоневрологические и педагогические разработки. Автором обоснована система поэтапных занятий, направленных на развитие речи, а также практическая значимость игр и упражнений. Приведены методические рекомендации, способствующие расширению словарного запаса, подчёркивается важность активизации деятельности детей через игру и формирования сенсорных и представлений навыков. Статья служит полезным

методическим ресурсом для специалистов в области специального образования и практикующих логопедов.

Ключевые слова: Детский церебральный паралич, речевые нарушения, логопедия, специальная педагогика, коррекционные занятия, словарный запас, сенсорное развитие, дефектология, дидактические игры.

Abstract

This article explores methods for addressing speech disorders in children with motor impairments (cerebral palsy). It emphasizes the importance of a comprehensive approach to overcoming speech development issues, integrating speech therapy, defectology, psychoneurology, and pedagogical strategies. The author presents a step-by-step system of activities aimed at speech development and highlights the practical value of games and exercises. Methodological recommendations are provided to help expand children's vocabulary, with a focus on enhancing activity through play and developing sensory and perceptual skills. The article serves as a valuable methodological resource for professionals in special education and practicing speech therapists.

Keywords: Cerebral palsy, speech disorder, speech therapy, special pedagogy, corrective exercises, vocabulary, sensory development, defectology, didactic games.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni nuqson turlari va uning darajalariga mos ravishda belgilangan davlat ta’lim talablari asosida ta’lim berish, nuqsonlarni o‘z vaqtida korreksiyalash, ikkilamchi nuqsonlarni oldini olish imkonini beradi. Bolalarning dunyoqarashini kengaytirib, mustaqil fikrlaydigan, o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan etib tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarga ta’lim tarbiya berish orqali Ona Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini shakllantirib, ma’naviy dunyosi kengayib boradi. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, maqsadga erishish uchun muayyan tarbiyaviy ma’rifiy ishlarga kompleks yondashib, ya’ni davolash tadbirlarini pedagogik ish jarayoni bilan chambarchas bog‘lab olib borish kerak. Miya falaji bilan kasallangan bolalar bilan olib boriladigan korrektsion pedagogik va davolash ishlari kompleks olib borishni, bunda psixonevrolog, nevropatolog, defektolog va tarbiyachi hamkorlikda ruhiy, jismoniy – harakat, nutqiy kamchiliklarni yumshatish yoki bartaraf etishda sistemali ish olib borishni talab etadi. [1]

Serbral falaj bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlarning dastlabki davrlarida atrofimizdagi narsa va hodisalarni, hamda ular bilan bo‘ladigan harakatlarni tushunishga, talaffuz qilishga, ularning farqli va o‘xhash xususiyatlarini anglab olishga, predmetlarda qism va butunlik munosabatlarini (inson yuzi va tanasining qismlari, boshqa predmetlarning ma’lum qismi kabi) o‘rganishga o‘rgatib boriladi. Bu mashg‘ulotlarda bolalarning lug‘at boyligi rivojlantirib boriladi. Ularga kundalik hayotimizda ko‘proq duch keladigan, xususan, idishlar, mebel, kiyim-kechaklar,

o‘yinchoqlar kabi predmetlarni tushunishga va yaxshi eslab qolishga o‘rgatiladi. Bir vaqtning o‘zida bolaning idrok qilish, fahmlash saviyasi va tasavvurlari konkretlashtiriladi. Bolani lug‘atini rivojlantirish uchun bolaning amaliy va hissiy tajribasini kengaytirishga qaratilgan dastlabki korreksion tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. Bola hayotining dastlabki davrlardanoq faol ravishdagi predmet-amaliyot harakatlarini shakllantirishga intilish zarur. Logoped bolaning onasini bola bilan birgalikda bo‘ladigan o‘yinlarga jalb qilish lozim. Bu jarayonda esa uning nutqi bir müncha rivojlanib boradi.

Lug‘atni shakllantirish bo‘yicha ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi. **Birinchi bosqichda** bolalar predmetlar bilan ularning tasviri va ular bilan bajariladigan ishlar bilan birlamchi tanishtiriladi. Bu o‘rinda bolaning e’tiborini jalb qilishga va uning javob reaksiyasini qo‘zg‘atishga yordam beradigan bir qator usullar qo‘llaniladi: ya’ni predmetni kutilmaganda, to‘satdan paydo bo‘lib qolishi, yo‘qolishi, uning harakati. Eng asosiysi esa bolaning o‘zi predmet bilan amalga oshiradigan harakatdir.

Ikkinci bosqichda bolalar predmetlar bilan, ularning sifati va o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari bilan bir müncha chuqurroq, kengroq tanishtirib boriladi. Bolada predmet haqidagi, uning qismlari orasidagi munosabat haqidagi, shuningdek, uning qurilishi va tarkibiy qismlari, nimaga mo‘ljallanganligi haqidagi tushunchalar shakllanib mustahkamlanib boradi.

Ishning uchinchi bosqichida predmetlarning belgilar va xususiyatlarining ko‘paytirilishi munosabati bilan mashg‘ulotlar bir müncha murakkablashadi. Lug‘at ishning asosiy vazifasi predmetlarning ajratib ko‘rsatadigan belgilari va xususiyatlarini ifodalovchi aniq so‘zlarni topishga, o‘z o‘rnida qo‘llash qobiliyatlarini mustahkamlash hisoblanadi.

Ishning to‘rtinchi bosqichida umumlashtirishlar va tushunchalar shakllanib boradi. Bolalarda predmetlarning asosiy belgilari va xususiyatlarini ajratib ko‘rsatuvchi so‘zlar asosida turdosh va o‘xshash jihatdan umumlashtiruvchi fikrlar rivojlantiriladi. Bolalar hajm, vaqt, masofa, son ma’nolarini ifodalovchi tushunchalarni o‘zlashtirishda, ayniqsa qiyinchiliklarga duch kelishadi. Lug‘at boyligini mustahkamlash uchun va boyitish uchun kundalik muloqotlar, didaktik o‘yinlar va o‘yin tarzidagi mashqlarni bajarish amalga oshiriladi. [2]

Biz shunday xulosaga keldikki, tserbral falajli bolalar lug‘atini takomillashtirish va boyitishning spetsifikasi sifatida uni predmet-amaliy va o‘yin faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda olib borish va sensor funksiyalarni rivojlantirish, ularning korreksiyasini ongli faoliyat bilan chambarchas bog‘liq holda tashkil qilishni ko‘rsatish mumkin. So‘z ustida uning til birligi sifatida va ayniqsa uning ko‘p ma’nolilagini o‘rganish haqidagi logopedik ishlarning muhim yo‘nalishi katta ahamiyatga egadir. Tserbral falajlangan

bolalarda grammatik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun ularning aqliy va nutqiy rivojlanishlariga kompleks tarzda yondashish kerak. [2]

Nutq rivojlanmasligini korrektsiyalashda logopedik mashg'ulotlarning mazmuni va uni o'z vaqtida olib borishi logoped va tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab etadi. Biz quyida bolalarning lug'at boyligini, ulardagi faol lug'atini rivojlantirish maqsadida quyidagi o'yin va mashqlarni tavsiya etamiz:

"Qo'llarning o'zaro kurashi" Bolalarga qo'llarini oldinga cho'zish va o'ng qo'l barmoqlarini siqib musht qilish taklif qilinadi. Chap qo'l mushtini o'ng qo'l mushti ustiga qo'yiladi. Qo'llar jangi boshlanadi: o'ng qo'l tepaga ko'tarilishni xohlaydi, lekin chap qo'l yo'l bermaydi, o'ng qo'l taranglanadi va asta-sekin yuqoriga ko'tariladi va bosh ustidagi nuqtaga yetadi, endi chap qo'l pastga tushishni xohlaydi, lekin o'ng qo'l, pastdagisi qarshilik ko'rsatadi va qarshi kurash sodir bo'ladi. So'ngra qo'llar bo'shashib gavda bo'ylab tashlanadi.

"Qo'l panjalari uchun mashqlar" Qo'llar oldinga cho'zilgan, bu holat 3–5 soniya davomida belgilanadi, so'ngra qo'l panjalari yuqorida qayiladi, kaftlar oldinga va yuqoriga qaragan ("Elektr yondi"), qo'l panjalari pastga tushiriladi ("Elektr o'chdi"). So'ngra qo'l panjalari tashqariga (ichkariga) aylana harakatlar sodir qiladi ("Rang-barang chiroqlar yoqildi, rang-barang chiroqlar yonib turibdi").

Qo'l, oyoq, gavdaning umumiy harakatlarini rivojlantirish uchun nutqsiz didaktik o'yinlar o'tkaziladi: oldin asta-sekin musiqa ostida, so'ngra ancha tezlashgan tempda uzukning kattaligiga rioya qilib uzuk bo'yicha piramidachani yig'ish-yo'yish; matryoshka, bochkachalarni yoyish-yig'ish; qurilish ashyolari bilan o'yinlar va boshqalar.

Diqqat-e'tiborli o'yinlar (2 yoshdan boshlab) "Xushmuomala so'zlar" Bolani tizzalar orasiga qo'yib unga mehr bilan qarash, boshini silab unga diqqat bilan eshitishini tayinlab: "Men Kolyajonga qarab, yaxshi narsalarni gapirib beraman. Qaranglar, Kolyajonning ko'zlari yonib turadi. Qaranglar, bizning Kolyajon mehrli, xushmuomala. Bizning Kolyajon qanday kuchli va chaqqon. Mening jonim qanday yaxshi ashula aytadi: "lya-lya-lya".". Pedagog bolani u bilan "lya-lya-lya" deb ashula aytishga va qarsak chalishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Nastol'naya kniga pedagoga-defektologa*, T. B. Epifantseva va boshq., Rostov n/D: Feniks, 2007.
2. Novotortseva N.V. *Metodika razvitiya rechi u negovoryashchikh detey*. – Yaroslavl: Izd-vo YaGPU, 1999.
3. Shomahmudova R.Sh, Tulaganova D. *Korrektcion pedagogicheskaya rabota s detmi DTsP doshkol'nogo vozrasta*, T., 2009.